

**NUTQIY KOMPETENSIYASI TUSHUNCHASINING ILMIY-
PEDAGOGIK JIHATI VA TARKIBIY TUZULMASI**

**Turanazarova Nilufar Rahmonqul qizi,
JDPU Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi, Stajyor-o'qituvchi.**

E-mail: +998(33) 310-00-26

turanazarovanilufar@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur maqolada nutqiy kompetensiya tushunchasining ilmiy-pedagogik mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi hamda ta'lim jarayonidagi o'rni yoritiladi. Kompetentlikning nazariy asoslari, xususan, lingvistika va psixolingvistika bilan bog'liqligi tahlil qilinadi hamda kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik kompetentlik, kommunikativ mahorat, og'zaki nutq, yozma nutq, boshlang'ich ta'lim, o'qish texnikasi, matn yaratish ko'nikmasi, lingvistika, psixolingvistika, ijodiy fikrlash, ijtimoiy kompetentlik.

Аннотация:

В данной статье освещается научно-педагогическая сущность понятия речевой компетенции, ее структура и роль в образовательном процессе. Анализируются теоретические основы компетентности, в частности ее связь с лингвистикой и психолингвистикой, а также обосновывается значение компетентностного подхода в повышении эффективности обучения.

Ключевые слова: речевая компетентность, компетентность, компетентностный подход, педагогическая компетентность, коммуникативная компетентность, устная речь, письменная речь, начальное образование, техника чтения, умение создавать текст, Лингвистика, психолингвистика, творческое мышление, социальная компетентность.

Annotation:

This article will highlight the scientific and pedagogical essence of the concept of speech competence, its structural structure and its role in the educational process. The theoretical foundations of competence are analyzed, in particular, in relation to

linguistics and psycholinguistics, and the importance of the competency approach in improving educational efficiency is substantiated.

Keywords: speech competence, competence, competency approach, pedagogical competence, communicative skill, oral speech, written speech, elementary education, reading techniques, text-making skills, linguistics, Psycholinguistics, creative thinking, social competence.

Kompetentlik so‘zi lotincha “competere” (mos kelish, qobiliyatli bo‘lish) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, zamonaviy dunyoda keng qo‘llaniladi. U ta‘lim, ish va ijtimoiy munosabatlarda muhim o‘rin tutadi. Masalan, malakali pedagog ta‘lim-tarbiya jarayonidan ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun kompetentlik ko‘rsatadi.

“Kompetentlik” (inglizcha: “competence” “qobiliyat”) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni samarali namoyon eta olish qobiliyatidir. U shaxsiy va professional rivojlanishning muhim ko‘rsatkichidir. Kompetentlikning ta‘lim-tarbiyaga singdirilishi uning hayotimizdagi o‘rnini anglash bilan bog‘liq holda amalga oshirilsa maqsadga muvofiqdir.

Kompetentlik shaxsning vazifalarni yuqori darajada bajara olish funksiyasi sifatida faqat nazariy bilimlarga asoslanmaydi. Aynan tajribaning samarasini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarga bilim berishi uning ta‘limiy maqsadini to‘liq ochib bera olmaydi, balki tushunchalarning mazmunini to‘g‘ri yoritgan holda o‘quvchilarga yetkiza olish qobiliyati uning kompetentligini belgilaydi. Kompetentlik pedagogning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, darsning optimallasuvi natijasida aktiv faoliyatni ta‘minlaydi. Shu jihatdan kompetentlik jamiyat rivojlanishining universal kalitidir.

Kompetentlikning bir nechta turlari mavjud:

Texnik kompetentlik bu shaxsning tanlagan kasb yoki sohasiga doir bilim, ko‘nikma va malakalarga egaligini namoyon eta olishidir. Masalan, dasturchi yaratadigan dasturlar uning aynan shu qobiliyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kasbiy kompetentlik har bir kasb egasining o‘z qobiliyati, hohish istagi asosida tanlagan kasbiga mos ravishda o‘ziga yuklatilgan vazifalarini samarali bajarish jarayonida namoyon bo‘ladi. Kasbiy kompetensiya ega bo‘lish uchun maxsus bilim, amaliy ko‘nikma va tajribani uyg‘un holda shakllantirish kerak. Masalan, tibbiyotda bemorlarni davolash muvaffaqiyatli kechishi kasbiy kompetentlikka misol.

Pedagogik kompetentlik pedagogning o‘quvchilarga bilimni tushunarli va aniq faktlar asosida, hayotiy bilim holatida yetkazishidir. Bu jarayon ta‘limni to‘g‘ri tashkil

etishni, o'quvchi jamoasini rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchi shaxs sifatida ular bilan individual shug'ullanishni talab qiladi. Darsdan ko'zlangan maqsad natijasi ushbu omillarga bo'g'liqdir.

Kreativ kompetentlik yangilikka to'yingan g'oyalarni ishlab chiqish va hayotiy vaziyatlarda ijodiy yo'l topa olishni talab etadi. Yangilik albatta boy tasavvur, keng dunyoqarash va innovatsion fikrlashga tayanadi. Masalan, Rassomning tasavvuridagilarni san'at holatga keltirishi kreativ kompetentlikni namoyon qiladi.

Ijtimoiy kompetentlik jamoaviy muhitga moslashgan holda muloqotda bo'lish va jamoada ishlash qobiliyatini anglatadi. U empatiya, hamkorlik va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini talab qiladi. Bu kompetentlik har bir soha vakillari uchun kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishda muhimdir.

Nutqiy kompetensiya tushunchasining ilmiy talqini avvalo bu atamaning anglatayotgan ma'nosi bilan anglashiladi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarning amaliy faoliyat bilan integratsiyalash orqali nutqiy kompetensiya esa lingvistika va psixolingvistika bilan bog'liq holda izohlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv — bu nutqiy bilim va nutq faoliyatini amaliy vaziyatda qo'llay oladigan shaxsiy salohiyatga asoslanadi. Bu yondashuv kommunikativ mahoratni ham qamrab oladi va til o'rganish jarayonini faqat grammatik bilim bilan cheklamaydi.

Boshlang'ich 1-4-sinflarda o'quvchilar odatda ona tili va o'qish bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

a) O'qish texnikasi bo'yicha:

Miqdoriy ko'rsatkich: bir daqiqada 80 — 90 so'zni o'qiy olish.

Talablar:

- harflarni to'g'ri talaffuz etish;
- so'zlarni to'g'ri o'qish;
- gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qish;
- gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish;
- sanash va ajratish ohanglaridan to'g'ri foydalanish;
- so'z urg'ulariga rioya qilish;
- ohangga rioya qilish;
- ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuz etish.

b) Matn mazmunini va o'zgaralar fikrini anglash malakasi bo'yicha:

Miqdoriy ko'rsatkich: 10 daqiqada 4-5 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olish.

Talablar:

- ogʻzaki nutqning toʻgʻri, ravon, aniq, tushunarli va taʻsirchan boʻlishi;
- monologik nutqning ravon boʻlishi;
- dialogik nutqda taʻsirchan, izchil, mantiqiy jihatning aniq boʻlishi.

v) Diktant yozish malakasi:

Miqdoriy koʻrsatkich: 75 — 80 soʻzdan iborat diktant yoza olish.

Talablar:

- imlo xatolarga yoʻl qoʻymaslik;
- ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;
- berilgan izohlarning aniqligi;
- lugʻatlarning toʻgʻri va aniq berilishi.

g) Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi boʻyicha:

Miqdoriy koʻrsatkich: 5-6 gapdan iborat boʻlgan matnni (fikr ehtiyoji bilan bogʻliq mavzu asosida) yaratish.

Talablar:

- matndagi gaplarning mazmunan oʻzaro bogʻliqligi va aloqadorligi koʻrsatilgan mavzu doirasida birlashishi;
- harf va tinish belgilarini toʻgʻri yozish;
- husnixatda qatorlarni toʻgʻri joylashtirish;
- soʻzlar orasidagi oraliqni toʻgʻri belgilash;
- tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish;
- matnda soʻzlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qoʻllay olish;
- matnda xat boshilarning yaxlitligi va fikr izchilligini taʻminlash;
- uyadosh soʻzlardan foydalana olish.

Boshlangʻich taʻlim yakunida oʻquvchilar kamida 20 ta kichik hajmdagi sheʼrni yoddan aytib bera olishlari shart.

Boshlangʻich taʻlim oʻquvchilar yozma va ogʻzaki nutq malakalariga ega boʻlish, fikr bayon qilish uchun zarur boʻlgan ayrim grammatik vositalarni oʻz oʻrnida qoʻllay olish, bogʻlanishli nutq elementlaridan toʻgʻri foydalangan holda sodda matn tuza olish, xalq ogʻzaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni oʻqib tushuna olish kabi malakalarga ilmiy jihatdan ega boʻlishi talab doirasida biroq buning ratsional bilim sifatida shakllanishi uchun taʻlimiy odat tusiga aylantirish muhim adaptivdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi. – Toshkent, 2020.
3. Pedagogik kompetentlik va innovatsion faoliyat / N. Muslimov va boshqalar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar / R. Ishmuhamedov. – Toshkent, 2021.
5. Til va nutq madaniyati / D. Xudoyberganova. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
6. Psixolingvistika / Sh. Safarov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.